


TOJIXON SABITOVA

O'ZBEK FOLKLORI

DARSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOJIXON SABITOVA

O'ZBEK FOLKLORI

*(Universitetlar va pedagogika institutlarining
O'zbek filologiyasi fakultetlari uchun darslik)*

Toshkent
«Sarbon LLS»
2024

UO'K 39(575.1)(09)
KBK 72(30')ya5
O'22

T. Sabitova. O'zbek folklori. Darslik. – T.: "Sarbon LLS", 2024.
374 b.

Mas'ul muharrir:

Nasimxon Rahmonov - filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Shomirza Turdimov - filologiya fanlari doktori, professor.

Abdimurod Tilavov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

«O'zbek folklori» darsligi mazkur fanning fan, o'quv va ishchi dasturi asosida yaratilgan. Ushbu darslikda o'zbek folklorining mohiyati, tadqiqi va tatbig'i, uning asosiy janrlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, og'zaki adabiy namunalarning xalq hayotida tutgan o'рни, ahamiyati, milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida ham atroflicha fikr yuritilgan.

Mazkur darslik filologiya yo'nalishi bakalavriat va magistratura talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar hamda mustaqil ta'lim shakllarining mavzulari mohiyatini o'z ichiga oladi. Mazkur fan asoslarini o'zlashtirish «Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti» ekanligi bilan belgilanadi. «O'zbek folklori» fani ijtimoiy islohotlar natijasini talabada amaliy his qildirish masalalarini qamraydi.

Darslik universitetlar va institutlarning filologiya fakulteti talabalari, magistrarlari, doktorantlar, filolog mutaxassislar, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 3-martdagi 55-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan. O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi raqami 127-411.

CHIRCHIQ TIL VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ISBN 978-9910-9026-6-6
AXBOROT RESURSLAR MARKALI

KIRISH

Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqilligimizning 31 yilligi tadbirlarida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 5ta ustuvor yo'nalishning birinchisini ta'lim sohasi deb aytdilar. Zero bu sohada ilmiy salohiyat eng yuqori o'rinda turmog'i lozim. Chunki qayerda ilm-ma'rifat bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyat, qadriyat, jonajon Vatanga bo'lgan sadoqat va boshqa insoniy fazilatlar rivojlanaveradi. Shuning uchun bu masalalarga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobining to'rtinchi bo'limida ta'lim, tarbiya, ilm-fanga hammaga tegishli fikrlarni bejiz aytmadilar: "Yana bir bor ta'kidlayman: men -Yangi O'zbekistonni -obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch" deb ilm ahliga ishonch bildirdilar. Shunday ekan, biz professor-o'qituvchilar har birimiz o'z sohamizni halol mehnatimiz bilan rivojlantirishimiz va ilm-fanni yuksak marralarga yetkazishimiz lozim. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarimizni amalga oshirishimiz zarur, zero folklorshunoslik ilmida ham. Shu nuqtai nazardan bu monografiyani yaratishga harakat qildim. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek, bu tadqiqot folklor ilmi bilan shug'ullanuvchi bakalavr, magistr talabalarga va doktorantlarga amaliy yordam berar degan umiddaman.

Jahon folklorshunosligidagi asarlarning nazariyasi, poetikasi va metodikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Dunyo folklorshunosligi mundarijasida turkiy xalqlar, jumladan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari alohida o'rin egallaydi. Bu asarlar millat tarixi singari qadimiy va boy ekanligi

Shaykat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. 2022, 223 b.

diqqatga sazovordir. Turkiy xalqlarning kechmishi, xalq va davlat sifatida bosib o'tgan yo'li og'zaki ijod dostonlarida o'z aksini topgan.

O'zbek xalqi o'zining g'oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalari bebaho badiiy qadriyatlar silsilasidir. Hamisha bunyodkorlik va yaratuvchilikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyanob va ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan ezgu g'oyalari o'z ifodasini topgan. Ona diyorimizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ijodkor xalqimizning dunyoqarashi, turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, Qadri abad an'analari-yu o'zbekona samimiyatini o'ziga xos tarzda badiiy ifoda etuvchi folklor asarlari o'nlab janrlarni o'z ichiga olgan g'oyat nodir ma'naviyat bo'stonidir. Xalq og'zaki ijodiyoti milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va hamisha yangilanib, har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib sayqallanib boradigan, ya'ni doimiy harakatdagi ijodiy jarayon hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi yurtdoshlarimizning turmush tarzi, yashash sharoitlari va ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallashib, mukammallashib, tobora an'anaviylashib boravergan va, nihoyat, kasbiylik (professionallik) kasb etgan hamda jonli ijro orqali bizgacha etib kelgan. Xalq ijodiyotining qadimiy namunalari esa yozma manbalarda, xususan, mamlakatimizda yaratilgan ulkan yodgorlik – «Avesto»da, shuningdek, tarixchi va adiblarning asarlarida, qoyatoshlar suratlarida (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarida o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan.

Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi turlari va janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, ertakchilar, roviylar, masxarabozlar, qiziqchilar,

askiyabozlar, qo'g'irchoqbozlar, qo'shiqchilar, go'yandalar, xalfalar, qissaxonlar san'ati yuzaga kelgan. Ammo xalq ijodi namunalarining yaratilishi, o'zlashtirilishi va amalga oshirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro va amaliyotning qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe' bo'lishi saqlanib qolgan. Shu sababli ham har qanday badiha, har bir ijodiy harakat, davomchi tomonidan kiritilgan qay bir yangilik barqaror an'analar doirasida, ustoz-shogirdlik qobig'ida ro'y bergan. Shu tariqa, bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro va amaliyot davomida xalq ijodining an'anaviy namunalariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritila borgan, yangi asarlar, yangi variantlar, yangi yechimlar yuzaga kelgan hatto qay bir namunalar unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

O'zbek folklorining qadimgi namunalari asl holida to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar, maqol, topishmoq va qo'shiqlar, epos parchalari turli xarakterdagi yozma yodnomalar, Yunon, Xitoy, Arab manbalari, tarixchilarning ma'lumotlari, arxeologik topilmalar orqali, shuningdek, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlari tarkibida saqlanib qolgan. Qayumars, Jamshid, Gershasp, Siyovush, Afrosiyob, Rustam, Iskandar, Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Zarina, Oysuluv, Guldursun, odami Od, Er Hubbi haqidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlik eposlari, «Devoni lug'otit turk»da keltirilgan folklor namunalarining yaratilishida o'zbek xalqi qadimiy ota-bobolarining ham munosib hissasi bor. Bu qadimiy folklor namunalarida tasvirlangan yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, to'g'rilik va egrilik, adolat va haqsizlik o'rtasidagi kurash motivlari keyinchalik o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodida qayta ishlanib, xalqimizning ijtimoiy munosabatlari va kurashlari bilan uyg'unlashib ketgan.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy namunalari mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlaridir. Ular qo'shiq yaratuv- chilarning amaliy faoliyati: ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan

va mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlarini, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelgan. Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda «Xo'p-mayda» yoki «Maydagul», sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda «Xo'sh-xo'sh», «Turey-turey», «Churey-churey» qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'ichoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, turli-tuman inonchlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p folklor namunalari yaratilgan. Masalan, onalar va buvilar tomonidan aytiladigan allalar hamda otalar va bobolar tomonidan kuylanadigan huyyalarda ezgu orzu-havaslar, farzandning kelajagi haqidagi umidbaxsh niyatlar tasvirlanadi, bola tarbiyasiga oid xalqona qarashlar bayon etiladi. Farzandning tug'ilishi, chaqaloqning beshik davri, ulg'ayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat to'ylari, ulg'ayish ehtirolari bilan bog'liq aytim-olqishlar, erkalama, ovutmachiq, yalinchoq, hukmlagich, chalg'itma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegishmachiq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar folklori tizimi yaratilgan. Nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq ravishda yor-yor, lapar, o'lan, kelin salom, kuyov salom kabi qo'shiqlar kuylangan. Bularda kelin-kuyovning ta'rif-tavsiflari, to'yning shavq-zavqi, shuningdek, ijtimoiy hayot va tengsiz nikohdan norozilik motivlari tasvirlangan. Qadrdon kishining vafoti munosabati bilan yig'lab aytiladigan qo'shiqlarda esa marhumning eng yaxshi sifatleri, shafqatsiz o'lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik dardi g'am-alam bilan izhor etiladi. Yil qurg'oqchilik kelganda yomg'ir chaqirishga bag'ishlangan «Sust xotin», qattiq shamol bo'lganda uni to'xtatish uchun «Choymomo» marosimi va qo'shiqlari ijro etilgan.

«Boychechak», «Barot keldi», «Yo Ramazon» kabilar ham turli mavsum-marosimlar bilan bog'liq. Bayramlar, jumladan, Navro'z bayrami haqida turkum folklor namunalari yaratilgan.

Xalq badiiy ijodining kattagina qismini lirik va satirik

qo'shiqlar, termalar tashkil etadi. Lirik qo'shiqlarda ishq-muhabbat, oila, ijtimoiy va maishiy hayot hodisalari keng yoritilsa, satirik qo'shiqlarda jamiyatdagi salbiy hodisalar, ayrim nojo'ya ishlar tanqid qilinadi. Qo'shiqlar dilraboligi, yoqimli ohangi, to'q qofiyalari, obrazlilik, tasviriy usul va vositalarning xilma-xilligi bilan inson ruhiyatini g'oyatda teran aks ettirib, muhim g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

O'zbek folklorining eng ommaviy janrlari maqollar va topishmoqlardir. Xalqning asriy tajribalari, pand va nasihatlarini o'zida ifodalagan maqollar hajman qisqa, biroq keng ma'noli obrazli nutq mevasidir. Maqollarda xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari ifodalangan. Ularda vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, vafodorlik, ilm-hunar o'rganish kabi oliyjanob fazilatlar ulug'lanadi, qo'rqqoqlik, nodonlik, yomonlik, egrilik, umidsizlik, yolg'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik, tamagirlik kabi yaramas sifatlar inkor etiladi. O'zbek xalqi bisotida o'ttiz mingga yaqin maqol bo'lib, ular g'oyaviy va tematik jihatdan boy va rang-barang.

Xalq orasida topishmoqlar ham juda keng tarqalgan. Ular narsa hodisalarning muayyan belgilarini boshqa predmetlarga qiyosan yashirib, yashirilgan narsa va hodisani topishga mo'ljallangan badiiy asarlardir. Shunga ko'ra topishmoq ikki qismdan iborat bo'ladi: yashirilgan narsa va hodisalar haqidagi obrazli ifodalar, ya'ni topishmoqning o'zi va uning javobi. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'l va biyobonlar, bo'ron, sel va toshqinlar, yer va osmon, yil va uning fasllari, hayvonlar va o'simliklar olami, uy- ro'zg'or va maishiy jihozlar haqida ko'plab topishmoqlar yaratilgan. Topishmoqlar ham maqollar singari tuzilish jihatidan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda she'riy shaklda bo'ladi.

Afsona va rivoyatlar, naql, latifa va loflar, ertaklar o'zbek folklorining nasriy janrlarini tashkil etadi. Xabar, axborot berish tarzidagi xayoliy uydirmalarga asoslangan qisqa syujetli bayoniy hikoyalar afsonalarni tashkil etadi. Shuning uchun